

**SO‘FI OLLOYORNING “SABOTUL OJIZIN” ASARIDAGI
TASAVVUFY-DIDAKTIK G‘OYALARI****Shamsiddinova Hafizabonu***FDU filologiya fakulteti
o‘zbek tili 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada So‘fi Olloyorning “Sabotul ojizin” asari mazmuni, badiiy-uslubiy yo‘nalishi va tasavvufiy-didaktik g‘oyalari tahlil qilinadi. Asarning asosiy g‘oyalari insonni axloqiy poklanishga, nafsni yengishga, ilm va ma‘rifat yo‘liga chorlash ekani ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: So‘fi Olloyor, “Sabotul ojizin”, tasavvuf, ma‘rifat, didaktika, pandnoma, hikmat.

So‘fi Olloyor o‘zbek mumtoz adabiyoti va tasavvuf tafakkurining muhim vakillaridan biri bo‘lib, uning “Sabotul ojizin” asari Movarounnahr ma‘naviy hayotida alohida o‘rin tutadi. Asar mazmunan tasavvufning asosiy tamoyillariga tayanadi va didaktik yo‘nalishda yaratilgani bois ko‘p asrlar davomida ma‘rifatparvarlik manbai sifatida qadrlanib kelingan. Asarda insonning ruhiy poklanishi, ilm va ma‘rifatning ustuvorligi, sabr va shukrning mohiyati chuqur falsafiy va badiiy talqinda bayon qilingan.

“Sabotul ojizin” asari ifoda uslubi sodda, ohangi turkona, badiiy saviyasi yuksak bo‘lganligi sababli XX asrga qadar Movarounnahr o‘lkalarida darslik sifatida o‘qitilgan. Chunki asarni o‘qir ekanmiz, sof islomiy e‘tiqod, komil inson axloqi, ilohiy muhabbat, yoshlar tarbiyasi kabi mavzular yaqqol ko‘zga tashlanadi. Unda Allohning ma‘rifati, sifatleri, imon, farishtalar, qabr azobi, qiyomat kuni, Payg‘ambar shifoati, umrning foniyligi va bu dunyoda yaxshi ustoz kerakligi haqida xabar beradi.

So‘fi Olloyor kitobning avvalida nima sababdan bu asarni yozgani, nima uchun “Sabotul ojizin” qo‘ygani haqida bayon qiladi:

Aqiyda so‘zlarini qildim isbot,

Anga qo‘ydim “Sabotul ojizin” ot.

O‘zimdek xastalar bo‘lg‘aymu deb shod,

Nasoyihdin ham andak ayladim yod.

Mazkur baytlar muallifning “Sabotul-ojizin” asarini yaratishdan ko‘zlagan maqsadi va ruhiy-intellektual pozitsiyasini ifodalaydi. Avvalo, u aqidaga doir bayon qilgan fikrlarini asoslashga harakat qilganini bildiradi. Ya‘ni, asarda ilgari surilgan g‘oyalar tasodifiy emas, balki diniy-ma‘naviy e‘tiqodga tayangan holda isbotlangan fikrlar sifatida tahlil etiladi. Shu bois muallif kitobiga ramziy mazmun aks etgan “Sabotul-ojizin” (“Ojizlarning saboti, bardoshi”) nomini beradi. Keyingi satrlarda muallif o‘zini

“kasal” deb atashi tasavvufga xos ramziy ifodadir. Bu yerda “xastalik” ma’naviy holat – insonning o‘z nuqson va ojizliklarini tan olishi, ruhiy poklanish zaruriyatini anglashini bildiradi. Shuning uchun ham u asar o‘ziga o‘xshagan ma’naviy tarbiyaga muhtoj, ruhiy sog‘lomlikni istagan kishilarga shifo bo‘lishi mumkin, degan umidni izhor etadi. Nasihatlarining yodda qolishi, samara berishi ham aynan shu ehtiyoj bilan bog‘lanadi.

Alloh Taoloni tanimoq bayoni bilan asar boshlanadi. Allohni bilmagan, aqidani bilmagan insonlar shaytonning eli bo‘lishi, amal qilganlari yel kabi o‘tkinchi ekanligi uqtirilgan:

Aqiyda bilmatan shaytona eldur,

Agar ming yil amal deb qilsa, yeldur.

“Iymonning bayoni”da esa Allohdan har ne kelsa, rost deb bilish iymondan ekanligi nazarda tutiladi. Bundan tashqari iymonsiz kishilarning hech bir amalini, ishini Alloh qabul etmasligi keltirilgan:

Na’uvzu billah, iymonsiz kishini,

Qabul etmas Xudoyim ishini.

Asarning davomida islom diniga oid Payg‘ambarimiz vasfi, iymon belgilari, farishtalarning belgilari, me’roj kechasi haqida ma’lumotlar beriladi. So’ngra ilm olish yo‘lida to‘g‘ri ustoz tanlash kerakligi uqtiriladi:

Agar bo‘lmasa yo‘l boshlag‘uvchi pir,

Solur bo‘ynunga shayton domi tazvir.

Asarda har bir masala o‘z javobini topadi. Dard kelganda shukr qilish, sabrli bo‘lish haqida “ Qazoga rozi va balog‘a sabrli bo‘lish bayonida” quyidagicha fikrlar keltirilgan:

Kel e banda, o‘zingni sol Xudog‘a,

Qazog‘a rozi bo‘l, sabr et balog‘a.

Yaqin bil, banda bo‘lsa asli isming,

Xudoning mulki bo‘lsa jon-u jisming.

Tasavvufda sabr – riyozat yo‘lining eng muhim sifatidir. So‘fi Olloyor sabrni nafaqat moddiy hayotdagi qiyinchiliklarga bardosh, balki ruhiy poklanishning asosiy mezon sifatida ko‘rsatadi. Shukur esa ma’naviy kamolotning davomiy holati sifatida talqin qilinadi. So‘fi Olloyor insonga berilgan ne’matlarni tan olish orqali qalb poklanishini targ‘ib qiladi.

So‘fi Olloyor asarning xotima qismida insonning muvaffaqiyatga erishish uchun havoyi orzu-u xayollarga berilmasligi, foydasiz ishlarga chalg‘imasligi lozimligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, mayda manfaatlar odamni asil maqsadidan uzoqlashtiradi. So‘fi Olloyorning nasihatiga binoan, agar banda o‘z aql-idrokini to‘g‘ri yo‘naltira olmasa, uning ishlari baribir samara bermaydi. U qalbni poklash, ko‘ngilni toza qilish, so‘zni esa rost aytilish zarurligini qo‘shimcha qiladi. Yolg‘on, manmanlik, o‘zini ustun

qo'yish kabi illatlardan yiroqturish, aksincha, chin so'zga rioya qilish insonni komillikka yetaklaydi. So'fi Olloyor o'zining asarini yozishda ham aynan ana shu maqsadga amal qilganini bildiradi:

Qalam qilding, qaro ko'nglingni qil oq,

O'shal urning so'zin xalqa qilib toq.

So'fi Olloyor xatoga yo'l qo'yganda tavba qilib, o'zini to'g'rilashga intilish zarurligini aytadi. Chunki insonning ma'naviy komilligidoimiy ravishda nafsni tiyish, so'zni toza tutish va amallarni to'g'ri bajarish orqali yuzaga keladi.

“Sabotul ojizin” tasavvufiy- didaktik adabiyotning eng yetuk namunasidir. Asarda tasavvufning markaziy tamoyillari – nafs tarbiyasi, sabr, shukr, ilm, namoz, halollik, ibodat, xushxulqlik kabilar haqida so'z yuritilib, hikmatli baytlar orqali chuqur falsafiy mohiyatda yoritiladi. So'fi Olloyor diniy-tasavvuf g'oyalarini murakkb shaklda emas, balki kitobxon uchun qulay, amliy pandlar orqali bayon etgani sababli asar ko'p asrlar davomida axloqiy qo'llanma sifatida o'qib kelingan. Shuning uchun asar o'zbek ma'naviyatining yuksk namunalaridan biri bo'lib, bugungi kunda ham tarbiyaviy, ilmiy va ma'rifiy qiymatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. So'fi Olloyor. Sabotul ojizin. – Rashid Zohid nashrga tayyorlagan.
2. Mallayev. N. O'zbek adabiyoti tarixi. O'qituvchi nashriyoti, 1965.
3. Rahmonov. N. O'zbek adabiyoti tarixi. Sano-standart nashriyoti: Toshkent, 2017.
4. Vohidov. R., Eshonqulov.H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006.